

**Ahmadov Ahmadjon Asror o'g'li**  
 Buxoro davlat universiteti  
 Arxeologiya va Buxoro tarixi  
 kafedrasi dotsenti, tarix fanalari  
 falsafa doktori (PhD)

## BUXORO AMIRI SAYYID OLIMXONNING AFG'ONISTONDAGI MUXOJIRLIGI: TARIXIY HAQIQAT VA XOTIRALAR

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Buxoro so'nggi amiri Sayyid Olimxonning 1920-yilda Buxoro amirligi qulaganidan so'ng Afg'onistonga muhojir bo'lib ketishi, muhojirlik davridagi hayoti va siyosiy faoliyati tarixiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** Afg'oniston, Buxoro, amirlik, Amir Olimxon, muhojirlik, hijrat, Kobul, Qal'ai Fatuh, harbiy yordam, tarixiy shaxs.

### ЭМИРАТ БУХАРА АМИР СЕЙИД АЛИМХОН В АФГАНИСТАНЕ: ИСТОРИЧЕСКАЯ ПРАВДА И ВОСПОМИНАНИЯ

**Аннотация:** В данной статье представлен исторический анализ эмиграции в Афганистан Сайида Алима Хана, последнего эмира Бухары, после падения Бухарского эмирата в 1920 году, его жизни во время эмиграции и его политической деятельности.

**Ключевые слова:** Афганистан, Бухара, эмират, Amir Alim Khan, эмиграция, миграция, Кабул, Калай Фатух, военная помощь, историческая личность.

### THE EMIRATE OF BUKHARA AMIR SEYID ALIMHON IN AFGHANISTAN: HISTORICAL TRUTH AND MEMORIES

**Abstract:** This article provides a historical analysis of the emigration to Afghanistan of Sayyid Alim Khan, the last emir of Bukhara, after the fall of the Bukhara Emirate in 1920, his life during the emigration, and his political activities.

**Keywords:** Afghanistan, Bukhara, emirate, Amir Alim Khan, emigration, migration, Kabul, Qalai Fatuh, military assistance, historical figure.

XX asr boshlarida yurtimizda ro'y bergan siyosiy o'zgarishlar mintaqa xalqlarining taqdiriga katta ta'sir ko'rsatdi. Ayniqsa, 1920-yilda Buxoro amirligining tugatilishi va sovet hokimiyatining o'rnatilishi natijasida ko'plab siyosiy arboblal, davlat amaldorlari hamda ziyolilar o'z yurtini tark etishga majbur bo'ldilar. Ular orasida Buxoro amirligining so'ngi amiri Amir Sayyid Olimxon ham bo'lib, bu tarixiy shaxs faoliyati bu masalada alohida o'rin tutadi. Sovet qo'shinlarining Buxoroga bostirib kirishi ortidan Amir Olimxon Afg'onistonga hijrat qilib, umrining qolgan qismini muhojirlikda o'tkazdi.

Buxoro amiri Amir Olimxon 1921-yil bahorida Afg'oniston amiri Omonullaxon huzuriga 500 tacha bek va ayonlari bilan siyosiy boshpana izlab boradi. Bu haqda Amir Olimxon "Bu bandayi ojiz Amudaryodan Afg'oniston tarafiga kechib o'tayotganimda yuz minglab kishilar va Buxoroning eng mo'tabar navkarlaridan taxminan 300 nafari menga hamroh edilar... Bu jamoadan taxminan besh yuz nafarini, shu jumladan eng ko'zga ko'ringan Buxoro aholisidan o'zimga yo'ldosh qilib olib... o'sha besh yuz kishi hamrohligida dorussaltanatga Kobul tomon yuzlandim[1] deb yozadi.

Amir Olimxon umrining eng oxirgi yillari 1944-yilgacha ham vatani ozod bo'lishi umidi bilan yashadi. Turk tarixchisi Nuriddin Xotuno'g'li o'zining Buxoroning so'nggi amiri: Olimxon (Afg'onistonda yigirma uch yil) deb nomlangan kitobida Amir Olimxonning Afg'onistonda yozib qoldirgan vasiyatnomasi haqida to'xtalib o'tadi. Unda: "Agar Haq Taoloning izni-inoyati ila

22 o'lkamiz Buxororoi sharif istiqloлга qayta qovushsa, u yerda shar'iy amirlik qurilsa, ortda turgan vafoli xalqimiz o'g'lim Mir Umarni Buxoro Amiri qilib saylasinlar"[2].

(Vasiyatnomada Olimxon Buxoro Amiri qilib saylanishi kerak bo'lgan shaxsni tilgan olgan, u o'zining o'g'lidir. Men Gaziantepda mana shu shaxs bilan ko'rishgan edim. U menga shunday vasiyatnoma haqiqatdan borligi, biror guvohi bo'lmagani uchun uni ochiqqa chiqarmagani haqida aytib berganligi va amir zurriyotining mazkur vasiyatnomani muallifga yuborganligi haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Amir Buxoroni tark etayotganda afg'on elchisi va brigada sarkardasi Abdulshukurxon, Afg'onistonning Toshkentdagi elchisi, ov boshlig'i Muhammad Aslamxon kabi mansabdorlar u bilan birga bo'lishgan. Birgina amirning Afg'onistonga o'tishi natijasida uning ortidan 250 ming yoki 50 ming oila Afg'onistonga o'tib ketgan[3].

Amir Olimxon Rustok-Qatag'on yo'li orqali eng ko'zga ko'ringan Buxoro aholisidan 500 kishi hamrohligida Dor us-saltanat Kobulga yetib bordi[4]. Dastlab Buxoro amiri Afg'onistonning Xonobod degan joyida yashab, amir o'ziga sodiq 100 tacha odami bilan turishi uchun unga ruxsat beriladi[5].

Amir Olimxon va uning yaqinlari avval afg'on hukumati tomonidan berilgan Husayn Kavt bog'ida yashab, unga 12 ming afg'on rupiyasi miqdoridagi nafaqa tayinlangan. Keyin Hoshimxon bog'iga bir yil muddat ko'chirilib, undan Murodbegi qal'asi bog'iga ko'chirilgan. Amirning so'ngi istiqomat manzili Kobuldan 11 km uzoqlikdagi Fatuh qal'asidagi bog' bo'ldi[6]. Ayrim adabiyotlarda amir Afg'onistonda dastlabki kunlar chegara yaqinidagi Abdunazarbegi qishlog'ida, bir necha kundan so'ng Katafan viloyatiga kelib bu yerdagi Hayotulobod bog'ida bir oydan oshiqroq vaqt davomida yashaganligi ham keltirilgan[7].

Amirning Afg'onistondagi muhojirligi qashshoqlikda kechdan, degan qarashni tarixiy dalillar tasdiqlamaydi. Amir Afg'onistonga o'tganidan so'ng Hoji Mirzo devonbegi Buxoro amiri xazinasidagi olmos va javohirlar bilan bezatilgan 3 dona qimmatbaho murosa tojlarini Said Olimxon huzuriga olib kelgan. Bu kabi murosa tojlarining bittasiga o'nlab Fatuh qal'asidagi bog'larni sotib olish mumkin bo'lgan[8]. Qolaversa, 1925-yil o'rtalarida amir Afg'oniston hukumatidan 14 ming rupiy maosh (ba'zi tarixiy asarlarda 14 ming 500 rupiy) olib turadigan bo'ldi[9]. Bundan tashqari 1 mln. oltin so'm mablag'ga ega bo'lgan zargarlik do'konidan kelgan daromad ham amir tirikchiligi uchun sarf qilingan[10].

Dastlabki davrda Qal'ayi Fatuhda amir bilan yashagan kishilar orasida Karmana begi Yovqochbek, Sherobod begi Abdulhafizbek, Mirfattohbeg udaychi, amirning savdo bo'yicha London (Angliya)dagi vakili bo'lib ishlagan Yusufboy Muqimboyev, Qori Mizrob, amirning harbiy vaziri Ibrohimbek, Abdullabek to'qsabo, A'zamhoji kabilar bor edi[11].

Aslida taxtdan ag'darilgan amir 1921-yil 10-martda 3 ming kishilik otryad bilan Afg'oniston chegarasidan o'tib, Hindiston tomonga qarab yo'l olmoqchi edi. Biroq, RSFSRning Afg'onistondagi vakolatli vakili o'rtoq Surits Afg'onistonning siyosiy muhojirlariga boshpana berish huquqini inkor etmagan holda 1921-yil 22-martdagi shaxsiy suhbatlaridan birida va keyinchalik Tashqi ishlar vazirligi bilan yozma xabarlarida quyidagi masalalar zarurligi xususida ko'rsatmalar berib o'tgan:

1. Amirning butun otryadini chegara chizig'idan ichkariga surib tashlash, 2. Amirni qurolsizlantirish, 3. Amir bilan yakka shaxs sifatida munosabatda bo'lib va unga kurashni davom ettirish uchun yangi bo'linmalarni yollashiga to'sqinlik qilish kabi masalalar xususida topshiriqlar berib o'tilgan[12].

Afg'oniston hukumati og'zaki bildirilgan barcha ko'rsatmalarga rozilik berib, 200 nafar qurolli otliq askarlar amir huzurida shaxsiy qo'riqchi sifatida qoldirilib, afg'on hukumati amirni faqat mehmon sifatida qabul qilganligi bilan bu masalani izohlagan. Bu masalalar bilan 1921-yilning aprel oyida missiyaning birinchi kotibi o'rtoq Rozenberg shartnomani ratifikatsiya qilish to'g'risidagi Rossiya hujjati matni bilan Afg'onistonning poytaxti Kobul shahriga jo'nab ketgan.

Buxoro amirligidagi siyosiy jarayonlar keskinlashgan davrlarda Amir Olimxon Afg'oniston bilan diplomatik aloqalarni tiklab ushbu mamalakatga elchi qilib Qori Habibullo To'qsaboni yubordi. Afg'onistondan ham Abdulmuhammadxon boshligidagi elchilar

kelishganligini ko'rish mumkin[13]. Bunday fikrlarni Amir Olimxonning "Buxoro xalqining hasrati tarixi" asarida ham quyidagicha ketirilgan "... Buxoro davlati andak vaqt ichida zarur harbiy choralarni ko'rib, bir ozgina tartib-intizom o'rnatgach, islomda hammazhab bo'laganligi jihatdan bir-biriga samimiylig bilan qarash oqibatida ikki birodar (Afg'oniston va Buxoro) bir tanu bir jon bo'lib qoldi. Afg'oniston davlati bilan do'stlik ahdi tuzildi. Shu jihatdan bolsheviklar jamoasi unga rashk bilan qarar edi. Bordi-yu agar asta-sekin Buxoro ham zo'rayib tartib-intizom darajasiga erishib qoladigan bo'lsa, bizning jumhuriyat davlatimiz parishonholga tushib qolishi va ranju kulfatga muhtalo bo'lishi turgan gap, deb o'ylashdi. Vaholanki, bizga yetishmovchiliklar bor. Ana shu kamchiliklarni bartaraf qilish uchun qattiq kirishib, o'zimizni bu qiyinchiliklardan xalos qilishimiz kerak"[14]. Bu xotiralardan ma'lum bo'ladiki, Buxoro amirining Afg'onistonga ketishdan asl maqsadi o'z oilasi, ayollari va bolalarini saranjom qilish, jang tayyorgarligini ko'rish, afg'on va boshqa musulmon mamlakatlaridan ko'mak olish edi. U Afg'onistonda doimiy yashab qolishni niyat qilmagan edi.

Chunonchi, Hoji Hazratqulbek va uning qavmidan bo'lgan ba'zi ulug'zodalar, shuningdek, amir Olimxon saltanati davrida u bilan aloqada bo'lgan yoki uning muxojirlik yillarida amir bilan hamsuxbat bo'lgan kishilarning guvohlik berishlaricha, Amir Olimxon Afg'onistonga kuch to'plash uchun vaqtinchalik ketgan edi. U Afg'onistonga borishdan oldin Afg'oniston podshoxi Amir Omonulloxondan harbiy yordam so'ragan. Omonulloxon afg'on ziyolilaridan bo'lgan Abdulhodixon Dovniy boshchiligidagi hay'atni Buxoroga yuborib, unga harbiy yordam va'da qildi hamda harbiy yordam masalasida o'zaro kelishib olish uchun uni Afg'onistonga taklif qildi[15].

Amir Olimxon ruslarga qarshi ittifoq izlash maqsadida Angliya bilan aloqa o'rnatadi va Hoji Seferbay ismli bir vakilni muzokara uchun Mashhad (Eron)ga, ingliz vakolatxonasiga yuboradi. Angliya buxoroliklarga ijobiy javob qaytaradi. Biroq, Afg'onistonda sodir bo'lgan voqealar tufayli Angliya bu ittifoqdan o'zi tiyilib turgan[16].

Xulosa qilib aytganda, Buxoro amirligining qulashi bilan bog'liq siyosiy jarayonlarda qo'shni davlat Afg'onistonning o'rni bevosita seziladi. Buxoroning so'ngi amiri Said Olimxon ham Afg'oniston madadiga tayangani, hattoki, Buxoro amirligining qo'shinlari safida afg'on askarlari ham borligi kabi jihatlar fikrimizning yaqqol isbotidir. Biroq, afsuski XIX asr oxiri - XX asr boshlarida ikki qo'shni davlatning mustamlakachilikdan ozod bo'lish yo'lidagi ittifoqchilikka qaratilgan harakatlari kutilgan natijani bermadi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Amir Sayyid Olimxon. Buxoro xalqining hasrati tarixi. T.: Fan, -1991. –B.17.
2. Nuriddin Xotuno'g'li. Buxoroning so'nggi amiri: Olimxon (Afg'onistonda yigirma uch yil). –T: Iqro, 2024. -B.62.
3. Хайитов Ш., Бадриддинов С. Бухоро тарихидан лавҳалар (XIX-XX асрлар). – Бухоро: “Бухоро”, -2007. -Б. 21.
4. Норқўчқаров Х. Афғонистондаги ўзбек амири (Ёхуд Бухоронинг сўнги амири Саййид Олимхоннинг Афғонистондаги тақдири ҳақида) // Тарихий манбашунослик, тарихнавислик, тарих тадқиқотлари ва методологиясининг долзарб масалалари мавзусидаги Республика XII илмий-амалий конференция материаллари. -Тошкент, 2020. II қисм. -Б. 89.
5. Шамсутдинов Р. Истиклол йўлида шаҳид кетганлар. –Тошкент: “Шарқ”, 2001. -Б. 61.
6. Аъзам Азимий. Фоту қалъасининг тутқуни (Бухоро хони амир Саййид Олимхон тўғрисида). -Тошкент: “Завқли қалам”, 2014. -160 б.
7. Наимов Н. Сўнги ҳукмдор (тарихий қисса). Бухоро: “Бухоро”, 2008. -Б. 127.
8. Саййид Мансур Олимий. Бухоро -Туркистон бешиги. –Бухоро, 2004. -Б. 91.
9. Хайитов Ш. Ўзбек мухожирлиги тарихи (1917-1991 йй). –Тошкент: “ABU MATBUOT-KONSALT”. 2008. -Б. 99.

10. Ҳайитов Ш., Раҳмонов К., Аҳмадов О. Бухоро ва бухорийларнинг жаҳоний шухрати. –Тошкент: “Наврўз”, 2020. -Б. 72.
11. Наимов Н. Амирнинг зурриёти. -Бухоро: “Бухоро”, 1995. -Б. 19.
12. Маҳкамов А. Элчи Абдурахим Юсуфзода фаолиятдан // Водийнома. 2022. -№2. -Б. 34.
13. Мирзоев Ш. Бухоро-Афғонистон тарих чорраҳасида (XIX аср охири - XX аср бошлари). Бухоро, “Дурдона”, 2018. - Б.19.
14. Амир Саид Олимхон. Бухоро халқининг хасрати тарихи. -Тошкент: “Фан”, 1991. -Б. 13.
15. Саид Мансур Олимий. Бухоро-Туркистон бешиги. Форс тилидан Ҳ.Тўраев таржимаси. -Бухоро, 2004. -Б. 86.
16. Мурат Ўзкан. Buhara hanlig'i (1500-1920).- Истанбул, 2021. -Б. 95.